CHOLG‘U IJROCHILIGI MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Ermat Fayzullaev,
JDPI “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti v/b,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Barkamol avlod tarbiyasida musiqaning o‘rni beqiyosdir. Musiqa boshqa san’at turlaridan farqli ravishda, u insonning eng nozik tuyg‘ularini, his-hayajonini, insondagi boy emotsiya zahiralarini ishga solishga qodir mo‘jizali vositadir. Ushbu maqola mazmunida musiqiy ta’lim yo‘nalishlarida cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlarining tashkiliy tuzilish xususiyatlari va musiqa asarlari ustida ishlashning o‘ziga xos metodik jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: musiqa, musiqa asari, musiqa tinglash, cholg‘u ijrochiligi, ansambl, kuy, ritm, shtrix, janr, estetik tarbiya, did, texnik ijro, badiiy ijro.

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi ko‘p jihatdan barkamol salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o‘rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning sa’yi harakatlari bilan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha” “Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tadbiq etish lozimligi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Mazkur “Harakatlar strategiyasi” har birimizdan harakat va mas’uliyatni talab qiladi! Shundan kelib chiqqan holda “Harakatlar strategiyasi”ning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini

ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.[1]

Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, bog‘chada, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta’lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, o‘quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o‘quvchilarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi.

Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi.

---

[1] Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. Т.Ў. 2017.

Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir. Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko‘ra, musiqa - san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir.

“Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea-hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me’morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o‘lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko‘rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi”.

Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo‘lib, u hech narsa bilan bog‘lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo‘lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo‘lgan tuyg‘u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg‘urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o‘xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o‘zaro bog‘liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqa “til”i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi.

Shakl - musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg‘ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi.

Shu bois musiqa “til”ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar boyligini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochadi. O‘sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg‘u bilan ta’kidlashgan. Kelajak

jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o‘ta o‘ziga xos badiiy ifoda “til”iga ega bo‘lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu “til”ning manbaidir.

Albatta musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi.

Tarbiyaviy ta’sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashxur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o‘zining “Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati” nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, uning ikki qarama-qarshi yo‘nalishda - yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini – “kerakli ishga yo‘naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya’ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak”, - degan.[2]

Musiqaning insonga ta’siri, shaxsning va jamiyataing ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadi. Shu o‘rinda Asafevning “...musiqa - bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin” - degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.[3]

Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks

[2] Ветлугина Н.А. Развитие музикальных способностей дошкольников в процессе музикальных игр. М.: АПН, 1988г., -247стр.
[3] Соипова Д. Мусиқий-назарий билимларни ўзлаштириш жараёнини такомиллаштириш. Т.:Фан ва технологиялар нашриёти, 2005 й., -84 бет.

etgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir.

Musiqiy ta’lim yo‘nalishida ta’limning uzluksizligini ta’minlash o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega. Avvalo boshlang‘ich, umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-7 sinf musiqa madaniyati fanlaridagi musiqaga qobiliyati bor o‘quvchilarni bolalar musiqa va san’at maktablariga jalb etish (albatta maktabidagi darsidan keyin) ko‘zlangan maqsadga erishishda, kelajakda musiqa ta’limi bo‘yicha yetuk mutaxassislarni (kadrlarni) tayyorlashni kafolatlaydi. Bolalar musiqa va san’at maktabidan keyin esa san’at kollejlari va oliy o‘quv yurtlarining musiqa (san’at) fakultetlarini tamomlagan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining nota o‘qish, cholg‘u ijrochiligi mahoratlari mustahkam shakllanadi.

Musiqa asarlari ustida ishlashni shakllantirish ishlari o‘quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda ularni musiqiy – nazariy savodxonligini o‘sishiga, musiqani idrok etish, unga tavsif berish, tahlil qilish, ijrochilik mahoratlari takomillashuviga ham katta yordam beradi.

Musiqiy ta’lim yo‘nalishida cholg‘u ijrochiligini tashkil etilishi va ulardagi mashg‘ulotlarni o‘quv ishlarining tabiiy davomiga aylantirishning real imkoniyatlari mavjud. Chunki, masalan rubob cholg‘u sozini chalishga o‘rgatishda o‘z-o‘zidan nazariy ma’lumotlarga tayanishga majbur bo‘lamiz. Usiz ansamblga birlashgan o‘quvchilarni bir tekis va bir xil (bir-biriga yaqin darajada) chalish darajasiga olib kelish g‘oyat mushkul.

Bu o‘rinda ritmni aniq ifodalash (sanoq), rubob pardalarida tovushlar joylashishi, mediator zarblari, tovush cho‘zimi-sanalishi bilan, turli ohang hosil qilish (aksent), tremolo, liga, ligato, stakkato kabi shtrixlarni o‘zlashtirishni, musiqa xarakterini ifodalash uchun temp, dinamik tuslar haqida aniq bilimlar zahirasiga ega bo‘lishlik tabiiy zarurat hisoblanadi.

Bu esa o‘z-o‘zidan musiqa darslarida o‘tilgan nazariy materiallarni chuqurroq o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Musiqa mashg‘ulotlari ishi yaxshi qo‘yilgan holatda o‘quvchilar boshqa o‘rtoqlariga ko‘ra ko‘proq musiqa bilan

mashg‘ul bo‘lishadi va ko‘proq mashq qilishadi. Bu esa, ularni musiqa savodi, musiqa tinglash, xor bo‘lib kuylash faoliyatlarida ham nisbatan muvaffaqiyatli ishtirok etishlari va o‘z bilimlarini namoyish etishlariga olib keladi.

Musiqa asbobida chalish, jo‘rnavozlik qilish, boshqalarni eshitish, birgalikda chalish, boshqalarni ijrosini kuzatish, o‘qituvchining amaliy ko‘rsatmalarini bajarish, kuzatilgan kamchiliklarni birgalikda tugatish, soz, ansambllikka rioya qilish bularning barchasi qatnashchi – o‘quvchilarni musiqiy xotirasi, ijrochilik qobiliyatlarini rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ansambl qatnashchilari rubob chalishning elementar qoidalari, talablari, unsurlarini teranli darajada egallab olganlaridan so‘ng ular o‘zlariga berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish, asarlarni o‘rganish borasidagi o‘qituvchi (rahbar) ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlarni eslab, o‘zi mustaqil ravishda o‘rganishlari, ijrochilik texnikasi, malakalarini takomillashtirib borishlari mumkin.

Ansambl ishtirokchilari turli janr, xarakterdagi o‘zbek xalq kuylari, zamonaviy kompozitorlarning bolalarga atab yozgan kuy - qo‘shiqlarini, qardosh xalqlar, chet el kompazitorlari va xalq musiqa ijodiyotiga mansub asarlarni o‘rganishlari jarayonida ularning musiqiy dunyoqarashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Ansambl ishtirokchilari bilan vaqti-vaqtida turli xalq, klassik, ayrim kompozitorlar asarlarini tinglashni tashkil etish, konsertlarga birga borish, turli tadbirlarga qatnashish, ijrodan so‘ng yutuq va muvaffaqiyatlarni muhokama qilish ularni cholg‘u ijrochiligini mukammal egallashga bo‘lgan ma’suliyatni oshiradi, ularni intizomli bo‘lishga odatlantiradi va boshqa fanlardan ham yaxshi o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Ma’lum bir asarni o‘rganishdan oldin uni tinglash, so‘ngra bu asar haqida o‘quvchilarni taassurotlarini o‘rtoqlashish, o‘qituvchining tushuntirish so‘zlari, qisqacha sharhlar, suhbatlar asarlarni mazmuni, janri, tuzilishi, xarakteri, kuyi (melodiya), ritmi, garmoniyasi haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Bu san’atga haqiqiy qiziqish va unga bog‘lanib qolish hamda estetik tarbiyaning o‘zidir.

Musiqiy ta’lim yo‘nalishi, musiqa maktabi cholg‘u ijrochiligi va ansambli yoki havaskorlik to‘garaklari o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchilarni g‘oyaviy estetik tarbiyalash;

- o‘quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini ruyobga chiqarish, kuylash va ijrochilik madaniyatini rivojlantirish;

- ansamblda ijro etish, jamoa bo‘lib kuylashga o‘rgatish;

- mashg‘ulotlar jarayonida darsda olingan bilim va malakalarni mustahkamlab borish;

- qatnashchilarni badiiy ijro mahoratini oshirish, o‘quvchilarni konsert ijrochilik faoliyatiga tayyorlash.

Musiqa asarlari ustida ishlashning o‘ziga xos metodik jihatlari:

1. Musiqa asarlari ustida ishlashda musiqa eshitish va musiqa tinglashning bir-biridan farqlanishini ajratib olish va musiqani analitik tahlil qilib o‘rganish haqidagi manbaalarni o‘rganish;

2. Musiqa tinglash dasturiga o‘zbek xalqiga mansub bo‘lgan eng nodir mumtoz musiqa asarlari kiritilsa. O‘quvchilarning badiiy didini shu tomonga burilsa;

3. Milliy ohanglardan yiroq “umumiy madaniyat” namunasi deb nom olgan musiqiy asarlarning asorati o‘spirinlarga tushuntirilsa;

4. Cholg‘u ijrochiligi jarayonini tashkil qilishda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari hisobga olinib ish tutilsa;

5. Cholg‘u ijrochiligida o‘quvchilarini musiqa tinglashga o‘rgatish imkoniyatlari o‘rganilib, bunda yangi-yangi uslublardan foydalanish ishlari yo‘lga qo‘yilsa.[4]

Zero, musiqa yosh avlodning ma’naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o‘sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

[4] Э.М.Файзуллаев. Бўлажак мусиқа ўқитувчилари бадиий дидини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари (ўзбек мумтоз мусиқаси мисолида). Пед.фан.номз... диссертатсияси. ТДПУ. Т.: 2010й

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 20- apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 27- iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz.
4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
5. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: - Ped. fan. dok. ... yozilgan diss. – T.: 1993. – 364 b.
6. Vetlugina N.A. Razvitie muzыkalnыx sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzыkalnыx igr. M.: APN, 1988g., -247str.
7. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma’naviyat ruhida tarbiyalash //Musiqiy ta’lim va ma’naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to‘plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
8. F.N.Xalilov. Didakticheskie osnovы instrumentalno-ispolnitelskoy podgotovki budushchix uchiteley muzыki: Avtoref.diss. … dokt.ped.nauk. – T.: 2006. – 48 s.
9. N.B.Toshtemirov. Uzbekskoe narodnoe pesennoe tvorchestvo Djizakskoy oblasti: Avtoref.diss. ... kand.iskuss. – T.: 1993. – 18 s.
10. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.
11. Kiyamov N. Musiqa darslarida o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo‘llari // Uzluksiz ta’lim tizimida musiqa fanlarini o‘qitish masalasi: Respublika ilmiy-amaliy materiallari to‘plami. Musiqa yo‘nalishi. – Toshkent, 2009. – B. 142-144.
12. Kiyamov N.S. Musiqiy madaniyat tarbiyasini o‘rganishga yo‘naltirilgan nazariy tadqiqotlarni olib boorish xususida // Nauka, prosveщenie i kultura v sisteme neprerevnogo obrazavaniya: prablemы i resheniya po realizatsii gasudorstvennoy programmы “God vnimaniya i zabotы o starshem pokolenii” Materialы nauchno-praktecheskoy konferensii.

13. Fayzullaev E.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.
14. Fayzullaev E.M. “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o‘zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish”. (metodik qo‘llanma). Toshkent – 2008.